
Toshloqda yoshlarga 20 sotixdan yer ajratildi

Keyingi yillarda Davlatimiz rahbarining yoshlarga bo'lgan e'tibori, ayniqsa, ularning ishsizlik muammosini hal etishga qaratilgan chora-tadbirlari qator ijobiy natijalar bermoqda.

Ayniqsa, joriy yildan ishsiz yoshlarni ish o'rinlari bilan ta'minlashga yo'naltirilgan qator loyihalarning joriy etilishi ayni muddao bo'lmoqda.

Toshloq tumanida yoshlar bandligini ta'minlash maqsadida O'zbekiston mahallasidagi "Toshloq paxta don" fermer xo'jaligiga qarashli 10.5 gektar yer maydoni 52 nafar yoshlarga 20 sotixdan ajratildi.

"Yoshlar daftari"da turgan yoshlar uchun yer maydonlari ekin ekishga tayyor holda, "Bir kontur - bir mahsulot" tamoyili asosida ko'mak ko'rsatildi.

2024-06-22 17:06:58